



A N F A
PHARMACEUTICALS

IMMUNOROK

PREPARATINI QO‘LLASH BO‘YICHA YO‘RIQNOMA

TARKIBI VA CHIQRILISH SHAKLI

Tabiiy o‘simliklar ekstraktidan tarkib topgan, o‘ziga xos xidga ega, jigarrang tusdagi (biroz chukma va xira ko‘rinish bulishi mumkin) suyuq qiyom bo‘lib, himoyalovchi plombali 100 ml hajmdagi asl flakonlarda qadoqlangan: (1) – himoyalovchi golografik yorliqli karton o‘ramlar, (2) – me‘yorlash qoshig‘i – dozator, (3) – qo‘llash bo‘yicha yo‘riqnoma.

	100 ml
Pushti rodiola ekstrakti (<i>Rhodiola rósea</i>)	30 mg.
Yalpiz ekstrakti (<i>Méntha piperíta</i>)	10 mg.
Binafsha rang exinatseya ekstrakti (<i>Echinacea purpurea</i> L.)	20 mg.
Qizilmiya ekstrakti (<i>Glycyrrhíza glábra</i>)	10 mg.
Qora andiz ekstrakti (<i>Ínula helénium</i>)	10 mg.
Na‘matak ekstrakti (<i>Rósa majális</i>)	20 mg.

Yordamchi moddalar: 100 ml.gacha tozalangan suv, shakar kukuni, 95 % li etil spirti

PREPARATNING TA‘SIRI

- Preparatning immunomodulyator effekti, immunitetning gumoral va xujayra zanjirida faollashtirish hisobiga amalga oshadi.
- Gripp virusi, paragripp, herpesvirus, enterovirus, rotaviruslarga qarshi yuqori samarali;
- Neytrofil granulotsitlarning bakteritsid faolligini oshiradi.

QO‘LLANILISHI

- Nevrotik va somatoformik o‘zgarishlarning astenik holatida;
- Asorat qoldirmaydigan virusli va mikrobl kasalliklar alomatlarini yengillashtirishda;
- O‘tkir va surunkali gerpetik va sitomegalovirusli infeksiyalarda;
- Jismoniy ishga layoqatning susayishida;
- Immun tanqislik holatlarida infeksiyani davolash va profilaktikasida qo‘llaniladi.

QO‘LLASH MUMKIN BO‘LMAGAN HOLATLAR

Preparatning ba‘zi tarkibiy qismlariga yakka tarzdagi chidamsizlik.

QO‘LLASH USULI VA DOZALARI

Yakka tarzda belgilinadi:

1 yoshdan 6 yoshgacha bolalarga
1,0 ml.dan kuniga 3 mahal

6 yoshdan 12 yoshgacha bolalarga
1,5 ml.dan kuniga 3 mahal

Kattalarga va 12 yoshdan katta bolalarga
2,5 ml.dan kuniga 3 mahal

Preparat ovkatdan keyin kabul kilinadi.

Preparatning terapevtik ta‘siriga erishish uchun, davolanish davomiyligi 15 kundan kam

bulmasligi kerak.

MAXSUS KURSATMA

Preparatni kabul kilishdan oldin, chaykating.

NOJO‘YA TA‘SIRI

Preparatning ba‘zi tarkibiy qismlariga organizm ta‘sirchanligi yukori bulgan holatlarida, allergik reaksiyalar ehtimoli mavjud.

PREPARATNING ME‘YORDAN ORTIQ QABUL QILINISHI

Preparatini me‘yordan ortiq qabul qilinishi oqibatida paydo bo‘ladigan noxush holatlar haqida xabar qilinmagan.

BOSHQA PREPARATLAR BILAN O‘ZARO TA‘SIRI

Boshqa dori vositalari bilan qo‘llanilganda nojo‘ya ta‘siri kuzatilmagan.

SAQLASH SHAROITI VA YAROQLILIK MUDDATI

Preparat bolalar qo‘li yetmaydigan, yorug‘likdan himoyalangan joyda +2°S do +25°S gacha haroratda saqlanishi lozim.

Saqlanish muddati – 24 oy.

Manzil: 1000011, Toshkent viloyati, Toshkent tumani,

Tel.: +998 (95) 195-59-00

E-mail: info@anfa.uz, www.anfa.uz